

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAYDULLAYEVA RA'NO IBADOVNA

**NIZOMIDDIN SHOMIYNING “ZAFARNOMA”
ASARI ONOMASTIKASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Saydullayeva Ra‘no Ibadovna

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi 5

Сайдуллаева Рано Ибадовна

Ономастика произведения Низамиддина Шами «Зафарнаме»..... 25

Saydullayeva Rano Ibadovna

The onomastics of the work “Zafarname” by Nizamuddin Shami 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

SAYDULLAYEVA RA'NO IBADOVNA

**NIZOMIDDIN SHOMIYNING “ZAFARNOMA”
ASARI ONOMASTIKASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Fil946 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jabborov Xo'jamurod filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy oponentlar:	Umurqulov Bekpo'lat Normurodovich filologiya fanlari doktori, professor Sayidov Yoqub Siddiqovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "08" aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "28" mart kuni tarqatildi
(2023-yil "21" mart dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.N. Shodmonov
N.N. Shodmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

G.N. Tojiyeva
G.N. Tojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

O.T. Begimov
O.T. Begimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning 60-yillaridan keyingi davrda onomastik birliklarni zamonaviy tilshunoslik usullarida tadqiq etish kuchaydi. Aynan mana shu davrdan boshlab, onomastika sohasi tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biriga aylandi va bu sohada ilmiy izlanishlar muntazam olib borila boshlandi. Onomastikaga oid lisoniy hodisalarni yirik miqyoslarda tadqiq etuvchi mazkur soha XXI asrda yanada jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, uning oldiga yangidan-yangi muammolarni qo‘ymoqda. Ana shunday muammolardan biri tarixiy-badiiy asarlar tilidagi onomastik materiallarni lingvistik jihatdan tahlil etishdir.

Dunyo tilshunosligida tarixiy va zamonaviy onomastik birliklarni sotsiolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik, pragmalingvistik, psixolingvistik, antroposentrik yo‘nalishlarda o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, ingliz, fransuz va rus tilshunosligida tarixiy va badiiy matnlardagi onomastik birliklarning matndagi o‘rni va ahamiyati, nom berish tamoyillari, lingvistik qiymati, etimologiyasi, struktur-grammatik, stilistik-funksional, leksik-semantik xususiyatlari ko‘plab yozuvchi va shoirlarning mazkur tillarda yaratilgan tarixiy va badiiy asarlari misolida o‘rganilgan. Hatto tarixiy onomastika bo‘yicha bir qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratilganligini alohida e‘tirof etish lozim.

O‘zbek zamonaviy onomastikasida antroponimiya, toponimiya, etnonimiya kabi atoqli otlarning umumnazariy va amaliy masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ammo o‘zbek tarixiy onomastikasi fanining o‘rganish obyekti bo‘lgan tarixiy toponimiya, antroponimiya, etnonimiya kabi atoqli otlar tizimini o‘rganish bugungi kunda talab darajasida emas. Onomastik birliklarni zamonaviy tarixiy-qiyosiy, statistik, leksik-semantik, etimologik, sotsiolingvistik, lingvokulturologik, lingvopoetik tadqiq usullari orqali o‘rganishni, ularning ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlarini belgilashni, tarixiy asarlarda muhrlanib qolgan onomastik birliklarni tadqiq etishni davr taqozo etmoqda. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug‘ alloma va mutafakkirlarimizning ko‘plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o‘rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi”¹ alohida ta’kidlandi. Shu jihatdan, Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarni tadqiq qilish o‘zbek nomshunosligi oldida turgan muhim, dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // <http://uza.uz/posts/345758>

Bunday onomastik birliklar maxsus to‘planmagan, lingvistik jihatdan alohida o‘rganilmagan. Bugungi kunda mamlakatimizda o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini yanada oshirish bo‘yicha qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo fanlarida Amir Temur davri tadqiqiga oid tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xususan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik, huquqshunoslik va boshqa fanlar kesimida Amir Temurning hayoti va sarkardalik faoliyati lisoniy, adabiy, tarixiy yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda. Bunda “Temurshunoslik” ilmiy yo‘nalishining ishlari diqqatga sazovor. Amir Temur tarixi va obrazining yaratilishi tarixiy-badiiy adabiyotda ancha ilgari boshlangan. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash lozimki, aslida o‘tmish davrlarda ham onomastika sohasiga oid ishlar amalga oshirilgan. Bunga Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning ilmiy, ijodiy faoliyatini misol sifatida qayd etish mumkin. Amir Temur hayoti va faoliyati haqida u yashagan davrda yaratilgan asarlarning o‘rganilishi kuzatilganda ushbu asarlarning yaratilish tarixi va sabablari, mazmuni, mundariyasi, tili, uning tarixshunoslikdagi qiymati, hozirgi davr xalqlari va tillaridagi o‘rni, ahamiyati masalalari bo‘yicha G‘arb va Sharq olimlari tomonidan ko‘plab asarlar yaratilganligiga guvoh bo‘lamiz. Buyuk ajdodimiz shaxsiga, faoliyatiga qiziqish kuchli bo‘lib, turli soha xodimlari: tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, siyosatshunos, me‘mor, harbiy ilmining mutaxassislari va boshqalar anchagina asarlar yozganlar.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nutqlarining birida “Ulug‘ bobomiz haqidagi adabiyotlarni, avvalo, tarixiy va badiiy hamda chuqur ilmiy tadqiqotlarga ajratish mumkin. O‘tgan 600 yil

mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida 900 ga yaqin ekan²ligini ta'kidlagan edi².

Sobiq sho'ro tarixshunosligida o'sha davrning o'ziga xos mafkuraviy yondashuviga qaramay, ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo'ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo'minov, R.Mukminova, V.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O'rinboyev, B.Ahmedov, D.Yusupova, A.Ahmedov, O'.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo'riyev kabi qator fidoyi olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillikkacha va mustaqillik yillarida nashr etilayotgan asarlarida Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini xolis va mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur³.

Ochig'i, o'zbek tilshunosligida bu sohada muayyan darajada ilmiy izlanishlar olib borilmadi. Ammo zamonaviy onomastik birliklarni to'plash va tadqiq etish bo'yicha doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, monografiya va ko'plab maqolalar nashr etildi. O'zbek onomastikasining fan sifatida shakllanishida E.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, S.Qorayev, N.Oxunov, Q.Xurramov, N.Husanov, Sh.Yoqubov, H.Sattorov, Y.Xo'jamberdiyev, T.Ernazarov, O.Begimov kabi olimlarning tadqiqot va maqolalari asos bo'ldi. O'zbek nomshunoslari o'zbek tili atoqli otlari tizimini o'rganish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirishdi. O'zbek antroponimiyasi, xususan, kishi ismlari, laqab va taxalluslar, shuningdek, toponimiya bo'yicha katta tadqiqotlar bajarildi.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida tarixiy onomastika va antroponimiya masalalari N.Husanov, S.Rahimov, Sh.Yoqubov, M.Tillayeva, M.Turdibekov⁴, N.Mo'minova⁵, F.Rajabov⁶larning tadqiqotlarida yoritilgan.

E.Begmatovning ma'lumoticha, N.Husanovning XV asr o'zbek yozma adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi va bir qator maqolalari hozircha o'zbek tarixiy antroponimiyasiga bag'ishlangan yagona tadqiqot bo'lib turibdi⁷. N.Husanovning ta'kidlashicha, Amir Temur haqida yuzlab asarlar yaratilgan bo'lsa-da, u va uning avlodlari ismlari yetarlicha o'rganilmagan⁸. Tadqiqot obyektimizning mavzu doirasiga yaqin tadqiqotlardan biri – bu N.Mo'minovning

² Karimov I. Amir Temur jahon tarixida. 2-nashr. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 27.

³ Fayziyev X. va boshqalar. Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 3-4.

⁴ Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Fil. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2014. – 230 b.; Shu muallif. O'zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2014. – 242 b.; Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 25 b.; Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 23 b.; Tillayeva M. Xorazm onomastikasining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. – 23 b.; Turdibekov M. "Shajarayi turk" onomastikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 103 b.

⁵ Mo'minova N. Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. ... falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – 46 b.

⁶ Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik, lingvopoetik xususiyatlari: Fil. fan. ... falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – 50 b.

⁷ Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 22.

⁸ Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Fil. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2000. – 230 b.; Shu muallif. O'zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2014. – B. 76.

temuriylar davri antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari⁹ga bag'ishlangan dissertatsiyasidir.

Ammo o'zbek nomshunosligining barcha sohalari ko'ngildagidek rivojlanayotgani yo'q. Bu muammolar o'zbek tilshunosligining onomastika sohasida tarixiy asarlarda berilgan lingvistik materiallarni o'rganishga bag'ishlangan ishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu fikr birinchi navbatda, *o'zbek tarixiy onomastikasi* deb yuritiluvchi atoqli otlar tizimining o'zbek tarixiy antroponimiyasi, toponimiyasi, etnonimiyasi va boshqa sohalarini tadqiq qilish ishiga tegishlidir.

Bevosita tadqiqot obyekti bo'lgan "Zafarnoma" asari bo'yicha turli yo'nalishlarda ham ayrim ishlar¹⁰ qilingan bo'lsa-da, ammo bu buyuk madaniy-ma'naviy meros va tarixiy, lisoniy manbaning ko'p jihatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilmagan. Shu sababli mazkur ishda, asosan, "Zafarnoma"dagi onomastik birliklar lingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur ish Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiruvchi "O'zbek nomshunosligining dolzarb muammolari" mavzusida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida qo'llangan onomastik birliklarning lisoniy xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Zafarnoma" matnida qo'llangan antroponim, toponim, etnonimlarni to'plash, kartotekalashtirish va ularni tizimlashtirish, tartibga solish;

tarixiy asarlar matnida onomastik birliklarning o'rni va statistikasini aniqlash; dunyo tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida tarixiy onomastika muammolarining o'rganilish tarixini sharhlash;

"Zafarnoma"da qo'llangan antroponim, toponim, etnonim va boshqa turdagi onomastik birliklarning ma'nolarini izohlash, nomlanish tamoyillarini ko'rsatish;

⁹ Mo'minova N. Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. ... falsafa d-ri (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – 46 b.

¹⁰ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o'giruvchi – Yunusxon Hakimjonov. Tarjimoni qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir – Asomiddin O'rinboyev. Izohlar va lug'atlarni tuzuvchi – Habibullo Karomatov (jug'rofiy nomlar izohi – Omonullo Bo'riyevniki). – Toshkent, 1996. – 521 b.; O'rinboyev A. Nizomiddin Shomiy // Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – B. 238-242.; Shomiy "Zafarnoma"sining yozilishi haqida // Sharqshunoslik: ilmiy to'plam. – Toshkent, 1996. – № 7. – B. 9-10.; Птицына Г. Извлечения из "Зафарнамэ" Низам-ад-дина Шами. Перевод. // Материалы по истории Туркмен и Туркмении. I том. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. // Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. – М., – Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939. – С. 511-523.; Primov A. "Zafarnoma" tarjimasida sinonimlarning qo'llanilish xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2017. – № 4. – B. 97-101; Dadaboyev H. "Zafarnoma" asarining o'zbekcha tarjimasida qo'llangan tarkibli qo'shma fe'l leksemalar semantikasi xususida // IIm sarchashmalari. – Urganch, 2019. – № 4. – B. 61-65.; Dadaboyev H. Amir Temur davrdoshlari (Amir Temur tarixidan so'zlovchi ensiklopedik lug'at). – Toshkent, 2018. – 287 b.; Dadaboyev H. "Zafarnoma" tarjimasida leksikasi xususida // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2008. – № 2. – B. 12-15; Bo'riyev O. Amir Temur tarixini o'rganishda yozma manbalarning roli // Amir Temur saboqlari. – Toshkent, 2001. – B. 41-42; Bo'riyev O, Karomatov H. Nizomiddin Shomiy va uning "Zafarnoma" asari // Muloqot. – Toshkent, 1993. – № 3. – B. 3-5.

“Zafarnoma”da qo‘llangan onomastik birliklarning tasnifi asosida tarkibiy tuzilishi va leksik-semantik xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklar va qiyoslash uchun temuriylar saltanatiga bag‘ishlangan asarlarda qo‘llangan onomastik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, areal-lingvistik, tarixiy-etimologik, tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Zafarnoma” asari matnida qo‘llangan 1670 ta onomastik birliklar, shundan 756 ta antroponim, 847 ta toponim, 63 ta etnonimlar, 1 ta zoonim, 2 ta fitonim, 1 ta kosmonimlar aniqlanib, ularning turkiy (o‘zbek), arab, fors tillaridagi lug‘aviy ma’nolari, taraqqiyot manbalari, tarixiy-etimologik qatlamlari, leksik-semantik xususiyatlari va nomlanish tamoyillari ochib berilgan;

onomastikada “tarixiy onomastika”, “tarixiy toponimika”, “tarixiy gidronimika” va “tarixiy etnonimika” tushunchalarining qo‘llanishi va anglatgan ma’nolariga yangi izohlar berilishi, ularning lisoniy xususiyatlaridan tashqari, qimmatli tarixiy, etnografik, etikaviy va estetik, diniy-mifologik ma’lumotlarni ham mujassam etishi isbotlangan;

“Zafarnoma” asaridagi antroponimlar, toponimlar, etnonimlar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) asarlari asosida ochib berilgan;

“Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklar lug‘aviy qatlamlarining sof turkiy (o‘zbek), arab, fors-tojikcha, aralash: arabcha+fors-tojikcha, turkiy+arabcha+fors-tojikcha, fors-tojikcha+arabcha+arabcha, arabcha+turkiycha+fors-tojikcha modellardan iborat ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

temuriylar davri manbalarida qo‘llangan onomastik birliklar va ularning o‘rganilishida “Zafarnoma” asarining o‘rni va lisoniy maqomi belgilangan;

“Zafarnoma” asaridagi nomlarning ma’nolari aniqlanib, onomastik birliklarning izohli lug‘ati yaratilgan, onomastik birliklarning tasnifi, lug‘aviy qatlamlari va leksik-semantik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan onomastik birliklar va materiallar o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berganligi, ularning asoslilik, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o‘zbek tarixiy onomastikasini Amir Temur va temuriylar davri aks etgan boshqa tarixiy asarlar haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitishi,

ishning ilmiy tahlili, nazariy qarash va usullaridan boshqa tarixiy asarlar onomastik birliklarini o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ish natijalari uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qitilayotgan o‘zbek tili va adabiyoti, tarix fanlari uchun manba vazifasini o‘tay oladi. Shuningdek, undagi materiallar, natija va xulosalardan “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “O‘zbek adabiy tili tarixi” “O‘zbekiston tarixi”, “Temurshunoslik” fanlarini o‘qitishda, o‘zbek tili tarixiy onomastikasi, tarixiy leksikologiyasi bo‘yicha darsliklar, metodik qo‘llanmalar yozishda, Amir Temur va temuriylar davriga oid nomlarning izohli va ensiklopedik lug‘atlarini tuzishda, bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlarida maxsus kurs, maxsus seminarlar o‘tishda manba va material vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temuriylar davri manbalarida qo‘llangan onomastik birliklarni tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Zafarnoma” asari matnida qo‘llangan 1670 ta onomastik birliklar, shundan 756 ta antroponim, 847 ta toponim, 63 ta etnonimlar, 1 ta zoonim, 2 ta fitonim, 1 ta kosmonimlar aniqlanib, ularning turkiy (o‘zbek), arab, fors tillaridagi lug‘aviy ma’nolari, taraqqiyot manbalari, tarixiy-etimologik qatlamlari, leksik-semantik xususiyatlari va nomlanish tamoyillari ochib berilganiga oid xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan Parlament komissiyasining 22.06.2020-yildagi Qaroriga asosan e’lon qilingan 67-10/136-raqamli Davlat granti bo‘yicha Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Qashqadaryo viloyat muassasasi tomonidan 2020-2021-yillarda bajarilgan “Madaniy meros – oliy qadriyat” mavzusidagi innovatsiya loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Qashqadaryo viloyat muassasasining 2022-yil 7-fevraldagi 5-son ma’lumotnomasi). Natijada onomastik birliklarning izohlarini boyitish, mukammallashtirish imkonini bergan;

“Zafarnoma” asaridagi antroponimlar, toponimlar, etnonimlar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) asarlari asosida ochib berilganiga doir xulosalaridan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Qadriyat”, ”Munozara”, “Til – millat ko‘zgusi”, “Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz” kabi mavzulardagi ko‘rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-apreldagi 17-05/112-son ma’lumotnomasi) Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlar ssenariylarining mazmun va mundarijasini boyitish, saviyasini oshirish imkonini bergan;

“Zafarnoma” asari matnida qo‘llangan 1670 ta onomastik birliklarni aniqlash orqali tizimlashtirilgan, tartibga solingan, asardagi onomastik birliklarning ma’nolari, ularning lisoniy va nolisoniy omillari belgilanishi bilan bog‘liq ilmiy xulosalardan “Zafarnoma” asaridagi onomastik birliklarning izohli lug‘ati”

(ISBN 978-9943-7898-2-1) nomli lugʻatni nashrga tayyorlashda foydalanilgan. Natijada asardagi atoqli otlarning maʼnolarini leksik-semantik jihatdan aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta izohli lugʻat, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning oʻrganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati, tadqiqotning joriy qilinishi, natijalarning eʼlon qilinganligi, tuzilishi haqida maʼlumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oʻzbek tarixiy onomastikasining nazariy asoslari va oʻrganilish tarixi”** deb nomlanib, uch boʻlimdan tarkib topgan. Bobning **“Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari tadqiqot obyekti sifatida”** nomli birinchi boʻlimida asarning yaratilish tarixi va undagi onomastik birliklarni tadqiqot obyekti sifatida oʻrganish zarurligi toʻgʻrisida fikrlar yuritilgan. Qadimiyatda shunday asarlar yaratilganki, yillar, asrlar oʻtsa ham, oʻzining ilmiy qimmatini, tarixiy ahamiyati bilan olimlarning, ziyolilarning eʼtiborini tortaveradi. Ana shunday yozma yodgorliklarning eng dastlabkilaridan biri Amir Temurning bevosita topshirigʻi bilan mohir adib va tarixnavis Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan **“Zafarnoma”** nomli asardir.

Muallifning yozishicha, 804-hijriy yil (milodiy 1401-yil 11-avgust – 1402-yil 1-avgust oraligʻi) Amir Temur uni huzuriga chorlab, oʻz yurishlari haqida asar yozishni va yozilajak asar avom xalqqa tushunarli, sodda, ravon tilda va ayni paytda maʼrifatli kishilar eʼtiboriga ham loyiq tarzda yozilishi lozimligini uqtirgan. Haqiqatan ham, Shomiy bu asarni katta mehnatlar evaziga, mubolagʻasiz, tarixchi oʻzi aytganiday, **“takallufu bezak berish, lof urish ziynatidan oʻzini tiygan”** holda yozib tugallaydi. Bu asar oʻzida tarixiy maʼlumotlarning ishonchliliigi bilan XIV-XV asrlardanoq boshqa asarlar uchun bosh va birlamchi manbalardan biri boʻlib kelmoqda. Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Nizomiddin Shomiyning **“Zafarnoma”** asari oʻziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birlamchi manbalardan hisoblanadi.

O‘zbek nomshunosligida temuriylar davri aks etgan manbalardagi onomastik birliklarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tili tarixiy onomastikasining dolzarb muammolaridan biri ekanini hisobga olsak, bu asarning tadqiqot obyekti sifatida tanlanishi bejiz emas.

Quyida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, bugungi mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligida Nizomiddin Shomiyning asaridagi antroponimlar – temuriylar sulolasi nomlari, Amir Temur va uning avlodu ajdodlari, davrdoshlari ismlarining majmuasi, ularning ism qo‘yish odatlari, bunday ismlarning ma‘nolari, ularning leksik qatlamlari, nomlanish tamoyillari, toponim va etnonimlarni ham lingvistik jihatdan tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Tarixiy onomastika**”, “**tarixiy antroponimika**”, “**tarixiy toponimika**”, “**tarixiy etnonimika**” tushunchalari haqida deb nomlangan. Ma‘lumki, tilning asosiy vazifasi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, muloqotni ta‘minlashdir. Ammo har qanday tilning boshqa ulug‘, betakror vazifasi ham bor – bu, uning tildan foydalangan o‘tmish ajdodlarimizning shaxsiy hayoti, ijtimoiy ahvoli, turmushi, madaniy-ma‘naviy, etnografik, axloqiy (etikaviy), estetik qarashlarini, ularning o‘ylari, shaxsiy ichki dunyosi, boshidan kechirgan hodisalarni, ularning ijodi, kasbi mahsuli bo‘lgan tushunchalarni o‘zida ifodalab, to‘plab, kelgusi avlodlarga tarixiy, madaniy, falsafiy, diniy meros qilib, o‘z bag‘rida saqlab yetkazishdir¹¹. Nemis tilshunosi V.Gumboldt ham: “Har bir xalqning tilida o‘sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo‘ladi”¹², – deb ta‘kidlaganida, tilning aynan shu vazifasini nazarda tutgan edi. Tilning barcha tarixiy, madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy, diniy va boshqa ijtimoiy-lisoniy qirralari, ayniqsa, tarixiy onomastikada, ya‘ni qadimiy atoqli otlar tizimida yaqqol aks etadi. O‘zbek tilshunosligining, xususan, tarixiy onomastika sohasida tarixiy asarlardagi onomastik birliklar o‘rganilganda, “*tarixiy onomastika*”, “*tarixiy antroponimika*”, “*tarixiy toponimika*”, “*tarixiy etnonimika*” tushunchalari va ular anglatgan ma‘nolariga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Bunday tushunchalarning ma‘nolarini o‘rganmasdan turib, tarixiy matnlardagi onomastik birliklarni tadqiq etib bo‘lmaydi.

Tarixiy onomastika – o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan barcha tarixiy va zamonaviy atoqli otlar majmui tushuniladi. Tarixiy onomastika tarixiy antroponimlar, toponimlar, etnonim kabilarning paydo bo‘lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi onomastikaning bir bo‘limidir.

Tarixiy antroponimika – onomastika fanining tarixiy antroponimlarni, ularning vujudga kelishi, shakllanishi, etimologik qonuniyatlari, tarixiy taraqqiyotini o‘rganadigan bo‘limi.

¹¹ Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 28.

¹² Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 213.

Tarixiy toponimikada tarixiy joy nomlari va ularning atalish qonuniyatlari o‘rganiladi. Toponim yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan barcha tabiiy-geografik va sun‘iy obyektlarning atoqli otidir¹³.

Tarixiy etnonimika. Etnonimika “Lingvistik qomusiy lug‘at”da berilishicha etnonimlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, funksiyasi va strukturasi, tarqalishini o‘rganadigan onomastikaning bir bo‘limi¹⁴dir. “Xorijiy so‘zlar lug‘ati”da etnonimika etnonimiya tarzida berilgan bo‘lib, 1. Xalq nomlarini o‘rganuvchi onomasiologiyaning bo‘limi. 2. Xalq nomlari majmui¹⁵ ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan.

N.V.Podolskayaning “Rus onomastik terminologiyasi lug‘ati”da: etnonimika – tarixiy fanlar tarmog‘i, onomastika bilan uzviy bog‘liq, etnonimlarni o‘rganuvchi¹⁶ bo‘limi; “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da etnonimika tarixiy leksikologiyaning etnonimlarni, ularning kelib chiqishi, tarqalishi, tuzilishi kabi tomonlarini o‘rganuvchi bo‘limi¹⁷; E.Begmatov, N.Uluqovlar tomonidan yaratilgan onomastik lug‘atda etnonimika – nomshunoslikning, shuningdek, tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi, etnonimiya – biror tildagi etnonimlar majmui¹⁸ tarzida izohlangan. Bu lug‘atlarda tarixiy etnonimika birikmali terminiga izohlar berilmagan.

“Tilshunoslikda onomastika masalalarining o‘rganilishi” deb nomlangan uchinchi bo‘limda jahon va o‘zbek tilshunosligida tarixiy onomastikaning o‘rganilishi haqida fikr yuritiladi.

Jahon tilshunosligida onomastika, xususan, tarixiy onomastika ko‘pgina tilshunoslikka oid fanlar bilan, jumladan, sotsiolingvistika, onomasiologiya, matn lingvistikasi, stilistika, kommunikativ lingvistik va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqador. Hozirgi kunda olib borilayotgan onomastik tadqiqotlar falsafiy va umumlingvistik an‘analarga tayanadi.

Jahon tilshunosligida onomastika sohasi rivojiga G.Y.Sizranovanning ma’lumoticha, Dj.Mill, B.Rassel, O.Espersen, Y.Kurilovich, P.A.Florenskiy, A.F.Losev, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov va boshqalar o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Onomastikaning umumiy muammolari A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, V.A.Nikonov, N.I.Tolstoy, O.N.Trubachev, V.D.Bondaletov, M.V.Gorbanevskiylar tomonidan tadqiq etilgan va etilmoqda. S.I.Zinin, M.V.Karpenko, Y.L.Berezovich, A.K.Matveyev, V.I.Suprun, Y.A.Karpenko, I.V.Kryukovalar tomonidan atoqli otlarning asosiy turlariga ta’rif berildi.

Dunyo til ilmida tarixiy va zamonaviy onomastik materiallar turli funksional aspektlarda: apellyativizatsiya, onimizatsiya, tranonimizatsiya hodisalari L.A.Vvedenskaya, E.M.Murzayev, N.P.Kolesnikov, D.S.Mgeladze,

¹³ Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 28.

¹⁴ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 598.

¹⁵ Словарь иностранных слов. – М.: Русский язык, 1987. – С.346.

¹⁶ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии // Отв. Ред. А.В. Суперанская. 2-е изд. – М.: Наука, 1988. – С. 192;

¹⁷ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 136.

¹⁸ Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – 103 b.

T.N.Kondratyev tomonidan ko‘rib chiqildi. Onomastika sohasining asosiy tarixiy jarayonlariga A.M.Selishev, P.T.Porotnikov, V.K.Chichagov, L.M.Shetin, O.N.Trubachevning ishlarida tavsif berildi, onimlarning alohida turlariga N.A.Petrovskiy, A.V.Superanskaya, B.O.Unbegaun, Y.A.Fedosyuklar tadqiqotlarida leksikografik ta‘rif berildi. Atoqli otlarning badiiy matndagi o‘rni, faolligi S.I.Zinin, E.B.Magazanik, V.N.Mixaylov, O.I.Fonyakovalarning ishlarida qayd etildi¹⁹.

Turkiyshunoslikda ham onomastika, xususan, tarixiy onomastika masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishlar mavjud. Bu sohada akademik V.V.Radlov, V.A.Gordlevskiy, N.A.Baskakov, G.F.Sattarov, T.Jonuzaqov va boshqa olimlar samarali ish olib borganlar. Jumladan, N.A.Baskakov o‘zining “Русские фамилии тюркского происхождения”²⁰ nomli maqolasida hozirgi kunda rus tilida faol qo‘llanilayotgan yuzdan ortiq kishi nomlarining kelib chiqishi jihatidan turkiy ekanligini isbotlab berdi.

Turkologiyada, asosan, 1950-yildan so‘nggi davrlarda onomastika bo‘yicha bir qator dissertatsiyalar yozildi. Ularni mavzu jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin: 1) toponimik tavsifdagi tadqiqotlar²¹, 2) antroponimik tavsifdagi tadqiqotlar²²; 3) gidronimik tavsifdagi tadqiqotlar²³.

Turkiy tillar onomastikasi, xususan, tarixiy antroponimikaning shakllanishi va taraqqiyotiga turkiyshunoslardan o‘zbek tilshunosi E Begmatov²⁴, qozoq tilshunoslari T.Januzaqov²⁵, B.Dosjanov²⁶, tatar tilshunoslari G.F.Sattarov²⁷, A.G.Shayxulov²⁸, boshqird tilshunosi T.X.Kusimova²⁹, qirg‘iz tilshunosi A.Idrisov³⁰, turkman tilshunosi S.Ataniyazov³¹, ozarbayjon tilshunosi Z.Sadixov³², jumladan, tojik tilshunosi A.G‘afurov³³ va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida bevosita tarixiy-badiiy matnlarda onomastik va antroponimik birliklarni o‘rganish bo‘yicha Sh.Yoqubov,

¹⁹ Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 3-4.

²⁰ Баскаков Н. А. “Русские фамилии тюркского происхождения. Восточно-славянская ономастика. – М.: Наука, 1972. – С. 176-249.

²¹ Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии: Автореф.дисс..канд.филол.наук. – Нукус, 1966; Юзбашев Р.М. Опыт исследования азербайджанских географических терминов: Автореф..дисс.канд.филол.наук. – Баку, 1962; Абдурахмонов А. Некоторые вопросы топонимики Казахстана: Автореф. дисс. канд.филол.наук. 1954; Атаниязов С. Топонимика Юго-восточного Туркменистана: Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Ашхабад, 1966; Исаев Д. Топонимика Северной Киргизии: Автореф.дис. канд.филол.наук. – Фрунзе, 1972.

²² Жанузаков Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Алма-ата, 1960.

²³ Камалов А.А. Гидронимия Башкирии:Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Уфа, 1969.

²⁴ Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 261 b.

²⁵ Жанузаков Т. Қазақ есімдерінің тарихы. – Алматы: Ғылым, 1971. – 216 б.

²⁶ Досжанов Б. Древние антропонимы в казахском языке. – Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Астана, 2001. – 26 с.

²⁷ Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ нэшрияты, 1990. – 278 с; Татар исемнәре сузләге. – Казань: Татаристан: Китап нэшрияты, 1981. – 271 с.

²⁸ Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. – Уфа, 1983. – С. 11-31.

²⁹ Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 1975. – 22 с.

³⁰ Идрисов А. Кыргыз тилиндаги ысмадар. – Фрунзе: Мектеп, 1971. – Б. 17-43.

³¹ Атаниёзов С. Туркмен адам атларының дүшүндиришли созлуги. – Ашгабат: Туркменистан, 1992. – 265 б.

³² Садыхов З. Личные имена в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1975; Система азербайджанских личных имен // Тюркская ономастика. – Алма-Ата: Наука, 1984. – С. 213-219.

³³ Гафуров А. Имя и история. – М.: Наука, 1987. – С. 10-12.

N.Husanov, M.Turdibekov³⁴, S.Raximov³⁵, R.Xudoyberganov³⁶, M.Tillayeva³⁷, Q.Olloyorov³⁸, Y.Avloqulov³⁹, R.Nuriddinova⁴⁰, D.Yuldashev⁴¹larning tadqiqotlarini qayd etish o‘rinlidir. Mazkur tadqiqotlar o‘zbek nomshunosligida o‘zbek tarixiy onomastikasi va antroponimikasi materiallarini tadqiq etishda qimmatbaho manba vazifasini o‘taydi. Yozma manbalardagi onomastik materialni o‘rganishga bag‘ishlangan ba’zi ishlar, asosan, o‘zbek folklori onomastikasiga⁴² yoki o‘zbek badiiy adabiyotidagi obrazlarning atoqli otlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, uslubiy xarakterdadir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zafarnoma” asari onomastikasining tasnifi va leksik-semantik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning **“Zafarnoma” asari onomastikasining tasnifi**” deb nomlangan birinchi bo‘limida “Zafarnoma”dagi onomastik birliklarning tasnifi haqida fikr yuritildi.

XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan N.Husanovning fikricha, nomshunoslikda quyidagi usullarga asoslangan ilmiy tasniflar mavjud: nomlanuvchi obyektning tipi, uning qaysi tilga mansubligi, nomlarning xronologik, genetik xususiyati va boshqalar⁴³. Shu o‘rinda aytish joizki, N.Husanovning “O‘zbek antroponimlari tarixi” nomli monografiyasining “XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari” deb nomlangan birinchi bobida yodgorliklardagi ismlar xususiyatidan kelib chiqib, ularni 3 guruh asosida tasnif va tahlil qilgan. Tasnifda makroguruh sifatida diniy, badiiy, real ismlar tanlangan. Bu makroguruhlar o‘z navbatida mikroguruhlariga ajratilib tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi diniy ismlar makroguruhiga payg‘ambarlar nomlari, payg‘ambarlarning ajdod-avlodlari nomlari, Muhammad payg‘ambarning ajdod-avlodlari, xalifalar va avliyolar, farishta nomlari, badiiy ismlarga esa an’anaviy va to‘qima ismlar; real ismlarga esa ijodkorlar va diniy ulamolarning ismlari, hukmdorlarning ismlari, Eron shohlarining ismlari, temuriylarning ismlari,

³⁴ Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi: Filol.fan.nomzodi ...diss.avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b; Husanov N. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2000 – 243 b; Turdibekov M. Abulq‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” onomastikasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss.avtoref. – Toshkent, 1999. – 21 b.

³⁵ Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nomzodi ... diss. avtoref.– Toshkent, 1998. – 25 b.

³⁶ Xudoyberganov R. O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 2008. – 146 b.

³⁷ Tillayeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – Toshkent, 2006. – B. 26.

³⁸ Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtorefat. – Samarqand, 2018. – 53 b.

³⁹ Avloqulov Y. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol.fan.nomzodi. diss....avtoref. – Toshkent, 2012. – 22 b.

⁴⁰ Nuriddinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol.fan.nomzodi..diss.avtoref. – Toshkent, 2005. – 20 b.

⁴¹ Yuldashev D. Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri...(DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 76 b.

⁴² Abdurahmonov D., Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi. O‘zbek xalq ijodi. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 110-111.

⁴³ Husanov N. O‘zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navro‘z, 2014. – B.12

mo'g'ul va turli hukmdorlarning ismlarini kiritgan va ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil etgan⁴⁴.

Biz esa yuqorida ko'rsatilgan N.Husanov tadqiqotidagi tasniflardan farqli o'laroq "Zafarnoma" dagi onomastik birliklarni turli jihatlardan tasniflashga harakat qildik. Ya'ni asardagi onomastik birliklarning umumiy miqdori, lug'aviy-ma'noviy guruhlari, ular o'rtasidagi miqdoriy ko'rsatkichlar, o'zaro o'xshash va farqli tomonlari tasniflash tamoyilidan kelib chiqib aniqlandi.

"Zafarnoma" onomastikasi olami manzarasini yaqqolroq tasavvur etish uchun quyidagi tartibga solingan turli onomastik birliklar, ya'ni *antroponim, toponim, etnonim, gidronim, zoonim, kosmonim, fitonimlarning* asardan olingan misollar asosida statistikasi berildi hamda saralash va tartibga keltirish tamoyilidan kelib chiqib tasniflandi.

1-tasnifni amalga oshirish uchun "Zafarnoma" asaridagi barcha onomastik birliklar illyustrativ misollar asosida kartotekalashtirildi va tartibga keltirildi, guruhlarga ajratildi. Natijada asarda 1670 ta atoqli otni o'zida birlashtirgan onomastik birliklar majmui aniqlandi. Bu tasnifning haqiqiy ma'nosi, ya'ni *saralash, tartibga solish* ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

1-tasnif

"Zafarnoma" dagi onomastik birliklarning umumiy tasnifi			
№	Onomastik birliklar nomi	Soni	Misollar
1.	Antroponimlar	756	Amir Temur Ko'ragon, Alishoh, Ibrohim Sulton, Kobul Sulton, Durchi o'g'li, Muhammad Sulton bahodir, Abdibek.
2.	Toponimlar	761	Kesh mavzei, Ayoslig', Bikri, Biljiman, Ko'rdung Ko'tohiya.
3.	Gidronimlar	86	Abdulloh arig'i, Andarob, Biyoh suvi, Gang daryosi
4.	Etnonimlar	63	Arman, Barlos qavmi, Tamim qabila, Qiyot nasli
5.	Zoonim	1	O'g'lon – Amir Temur otining nomi
6.	Kosmonim	1	Suho yulduzi
7.	Fitonimlar	2	Suman // Sunbul, Sarv
	Jami:	1670	

2-tasnifda esa "Zafarnoma" asaridagi onomastik birliklardan birgina antroponimlarning qaysi sulolaga mansubligiga ko'ra tasnifi va statistikasi berildiki, unda 756 nafar kishi ismlarining sulolaviy mansubligi ko'rsatildi. 756 nafarning 559 tasi, deyarli 70 % i Amir Temur amirlari, no'yonlari, safdoshlari va uning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning ismlari bo'lsa, asarda temuriyzoda erkaklar ismlari 16 nafar, xotin-qizlar ismlari 24 nafar, payg'ambarlar, xalifalar va ularning avlodlari ismlari esa 26 ta, farishtalar 4 ta, afsonaviy to'qima ismlar 10 ta, ijodkorlar va diniy ulamolarning ismlari 24 ta, mo'g'ul hukmdorlari ismlari 85 tani tashkil etishi aniqlandi.

⁴⁴ Bu haqda to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Husanov N. O'zbek antroponimlari tarixi. – Toshkent: Navro'z, 2014. – B. 22-121.

“Zafarnoma” asaridagi antroponimlarning qaysi sulolaga mansubligiga ko‘ra tasnifi va statistikasi			
	“Zafarnoma”dagi onomastik birliklar qaysi sulolaga mansubligiga ko‘ra	Antropo- nimlar soni	Misollar
1.	Temuriyzoda erkaklar ismlari	16	Qarochor Barlos, Abu Bakr Bahodir Amirzoda, Shohrux Mirzo, Ibrohim Sulton, Ulug‘bek Amirzoda, Muhammad Sulton, Mironshoh, Pirmuhammad, Xalil Sulton, Umarshayx Mirzo
2.	Mo‘g‘ul hukmdorlari ismlari	85	O‘ktoy qoon, Munka qoon, Anka qoon, Yasudor qoon, Ilik qoon, Yo‘sun Munka, O‘zbekxon
3.	Boshqa hukmdorlar ismlari	8	Doro, Kay, Sulton Jaloliddin Malikshoh, Sulton Muhammad Xorazmshoh
4.	Amir Temur amirlari, no‘yonlari, safdoshlari va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarning ismlari	559	Abbos Amir, Ali Yasovuriy, Ali Qovchin, Vafodor, Yodgori Andxo‘yi, Usmon Ziyrak, Uzun Uljoytu, Tobduq Amir, Amonshoh, Hindushoh Xozin
5.	Payg‘ambarlar, xalifalar va ularning avlodlari ismlari	26	Muhammad Arabiy, Ashmuil, Yusuf alayhissalom, Horun, Hasani Mujtabo, Abdulfazl Abbas, Abu Manof, Aliyi Murtazo, Umar ibn Xattob
6.	Farishtalar ismlari	4	Mikoil, Isrofil, Azroil, Jabroil
7.	Ijodkorlar va diniy ulamolarining ismlari	24	Abulays Samarqandiy, Abu Muslim Marvaziy, Ahmad Jom, Shayx Sa‘d Ajudoniy, Muhammad Xurosoniy
8.	Xotin-qizlar ismlari	24	Saroy Mulk Xonim, Sultonbaxt og‘o, Tumon og‘o, To‘kal Xonim, Uljoy Turkon og‘o
9.	Afsonaviy (to‘qima) ismlar	10	Jamshid, Mahdiy, Faridun, Soriya
	Jami:	756	

3-tasnifda Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan birlamchi tarixiy asarlarda onomastik birliklarning umumiy tasnifi va qiyosi to‘rtta asar: Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) asarlari misolida o‘rganib chiqildi. Natijada bu asarlardan Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida 1888 ta, ya’ni eng ko‘p onomastik birliklar zikr etilganligi ayonlashdi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida 1666 ta, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”da 843 ta, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sida (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi) 662 ta atoqli otlar mavjudligi aniqlandi va tasnifi ishlab chiqildi.

Amir Temur tarixiga bag'ishlangan birlamchi tarixiy asarlarda onomastik birliklarning umumiy tasnifi va qiyosi								
T/r	Tarixiy asarlar nomlari	Antroponimlar		Toponimlar			Etnonimlar soni	Jami onomastik birliklar soni
		Erkaklar ismlari soni	Ayollar ismlari soni	Gidronimlar	Oronimlar	Oykonim va boshqa birliklar		
1.	Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"	732	24	86	103	660	63	1666
2.	Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"	731	27	107	85	875	63	1888
3.	Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi"	517	7	15	8	260	36	843
4.	Salohiddin Toshkandiy. "Temurnoma" (Amir Temur Ko'ragon jangnomasi).	423	20	15	8	137	59	662

Bobning ikkinchi bo'limi "**Teonimlar va antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari**" deb nomlangan. Bu bo'limda teonimlar va antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. *Teonim* termini yunoncha (theonum) – Alloh, tangri, iloh va onoma (nom, atoqli ot) so'zlari qo'shilishidan yasalgan bo'lib, har qanday iloh va ilohalar nomini anglatadi⁴⁵.

Biror tildagi teonimlar majmui teonimlar, teonimlarni tadqiq qiluvchi onomastika sohasi teonimiya deb yuritiladi. Teonimlarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ishlarning ayrimlari bevosita iloh va ilohalar nomini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, ba'zilarida bu muammo mifologiyaga (Zevs, Poseydon) bog'langan holda yoki boshqa xil etimologik tahlillar bilan aloqador holda o'rganilgan.

Turkiy teonimlar, ularning eng qadimiy o'tmish tarixi haqida rus etnograflari va sharqshunoslari G.P.Snesaryov, O.A.Suxareva, N.Direnkova, M.V.Stebleva, T.D.Bayaliyeva, N.F.Mokshin, A.Aslanov tadqiqotlarida, o'zbek tilshunosligida teonimlar Sh.Maxmaraimova, R.Nuritdinova, Y.Avloqulov kabi olimlarning ishlarida uchraydi. B.Yo'ldoshevning "Erkin Samandarning onomastik birliklarni qo'llash mahorati" ("Quyun izlari yohud Ogahiy" tarixiy romani asosida) monografiyasida esa badiiy asarda uchraydigan teonimlar haqidagi ma'lumotlar qimmatlidir.

Teonimlar tarixiy-badiiy asarlarda qo'llanganda muhim g'oyaviy-estetik vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Chunki ayni shu onimlar orqali badiiy

⁴⁵ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 124.

asar muallifi yoki qahramonning e'tiqodi, shaxsiyati, xudojo'yligi kabilar namoyon bo'ladi.

“Zafarnoma”da teonimlardan – *Alloh, Xudo, Tangri* nomlari qo'llangan. Ushbu teonimlarning leksik-semantik xususiyatlari quyidagicha:

